



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUT REKTORINING

BUYRUG'I

20 21 yil " 06 " 09

570 -son

Toshkent sh.

Institutga professor-o'qituvchilar
tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini
o'tkazish bo'yicha Jamoatchilik kengashi tarkibiga
o'zgartirish kiritish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 iyul kunidagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori 7-bandining birinchi xatboshining va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yilning 8 iyul kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 iyul kunidagi PQ-3775-sonli qarori ijrosi to'g'risida"gi 512-sonli buyrug'inining 8-bandi ikkinchi xatboshida belgilangan vazifalarni hamda institut rektorining 2020 yilning 02 sentyabr kunidagi "Institutga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini o'tkazish bo'yicha Jamoatchilik kengashi to'g'risida"gi 493-sonli buyrug'iga o'zgartirish kiritish maqsadida

BUYURAMAN:

1. Barcha prorektorlar, bo'limlar va markazlarning rahbarlari, fakultetlarning dekanlari hamda kafedralarning mudirlariga;

1.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 iyul kunidagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori 7-bandining birinchi xatboshining va Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yilning 8 iyul kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 iyul kunidagi PQ-3775-sonli qarori ijrosi to'g'risida"gi 512-sonli buyrug'inining 8-bandi ikkinchi xatboshida belgilangan vazifalar hamda institut rektorining 2020 yilning 02 sentyabr kunidagi "Institutga professor-o'qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini o'tkazish bo'yicha Jamoatchilik kengashi

to‘g‘risida”gi 493-sonli buyrug‘iga o‘zgartirish kiritilishi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini o‘tkazish bo‘yicha “Jamoatchilik kengashi”ning tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini o‘tkazish bo‘yicha “Jamoatchilik kengashi” Nizomi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4.Jamoatchilik kengashining raisi K.K.Ismailovga;

5.1.Institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini kafedra yig‘ilishida institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini o‘tkazish bo‘yicha “Jamoatchilik kengashi” a’zolari ishtirokida o‘rnatilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar asosida samarali va sifatli o‘tkazilsin.

5.2.Zamon talabiga javob beradigan, dars jarayonida interfaol usullardan foydalana oladigan hamda yuqori bilim salohiyatiga ega bo‘lgan nomzodlarni ishga qabul qilish taklifi kiritilsin.

6.Barcha kafedra mudirlariga;

6.1.Ishga qabul qilinayotgan professor-o‘qituvchilarni “Jamoatchilik kengashi” tomonidan belgilangan vaqtida ishtirok etishi ta’mnlansin.

7.Monitoring va ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i X.I.Abduraxmonovga;

7.1.O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2019 yil 27 sentyabrdagi “Oliy ta’lim tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish va “Korruptsiyasiz soha” loyihasini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 865-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Yo‘l xaritasi”ning 31-bandining ijrosini ta’minalash maqsadida institutga qabul qilinayotgan professor-o‘qituvchilarning kasbiy odob-axloq qoidalariga rioya etish, manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf qilish va korrupsiyaga qarshi kurashishning yo‘nalishlari bo‘yicha bilimlarini oshirish choralar ko‘rilsin.

8.Institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini o‘tkazish bo‘yicha Jamoatchilik kengashining kotibi B.X.Boltaevaga;

8.1.Institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini o‘tkazish bo‘yicha “Jamoatchilik kengashi”ning me’yoriy-huquqiy hujjatlarini rasmiylashtirish va yuritish ishlari yuklatilsin.

9. Ushbu buyruqning bajarilishi ustidan nazorat qilish vazifasini o‘z zimmamda qoldiraman.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 iyul kunidagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga

oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli qarori, Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2018 yilning 8 iyul kunidagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yilning 5 iyul kunidagi PQ-3775-sonli qarori ijrosi to'g'risida"gi 512-sonli buyrug'i hamda isntitut rektorining 2018 yilning 12 iyul kunidagi 453-sonli buyrug'i.

Rektor v.v.b



Z.A.Yuldashev

Toshkent farmatsevtika institutining
 2021 yil 06 sentyabrdagi ~~578~~⁵⁷⁹ son
 buyrug‘iga illova



**Institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida
 sinov darsini o‘tkazish bo‘yicha
 Jamoatchilik kengashining tarkibi**

| T/r | F.I.SH. | Lavozimi |
|----------------|------------------|----------------------------------------------------------|
| Rais | | |
| 1 | K.K.Ismailov | Institut Kasaba uyushma qo‘mitasi raisi |
| Kotiba | | |
| 2 | B.X.Boltaeva | Xotin qizlar masalalari bo‘yicha rektor maslahatchisi |
| A’zolar | | |
| 3 | X.I.Abduraxmonov | Monitoring va ichki nazorat bo‘limi boshlig‘i |
| 4 | D.K.Xudoyqulova | TSNQB boshlig‘i |
| 5 | N.A.Abzalova | O‘quv-uslubiy bo‘lim boshlig‘i |
| 6 | Z.U.Mamatqulov | Sanoat farmatsiyasi fakulteti dekani |
| 7 | V.R.Xaydarov | Farmatsiya fakulteti dekani |
| 8 | F.A.Umarova | Magistratura bo‘limi boshlig‘i |
| 9 | D.T.Amriddinova | O‘zbek-Rossiya qo‘shma ta’lim fakulteti dekani |
| 10 | M.Fatxullaeva | Analitik kimyo қafedrasи mudiri |
| 11 | M.SH.Davlatov | O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi institut BT etakchisi |



Toshkent farmatsevtika institutining
2021 yil 06 sentyabrdagi 50 son
buyrug‘iga 2-ilova

**Institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish
jarayonida sinov darsini o‘tkazish bo‘yicha
Jamoatchilik kengashining NIZOMI**

1-bob. Umumiy qoidalar

1.1.Mazkur Nizom Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi institutga professor-o‘qituvchilar tarkibiga ishga qabul qilish jarayonida sinov darsini o‘tkazish bo‘yicha ”Jamoatchilik kengashi”ning (keyingi o‘rinlarda-Jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

1.2.Jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

1.3.Jamoatchilik kengashi Toshkent farmatsevtika institut rektorati huzurida tashkil etiladi va uning faoliyati Toshkent farmatsevtika institutining barcha fakultetlar, kafedralar va bo‘limlariga tatbiq etiladi.

1.4.Jamoatchilik kengashi Toshkent farmatsevtika instituti rahbarining buyrug‘i bilan tashkil etiladi.

1.5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

1.6.Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonun hujjatlariga amal qiladi.

1.7. Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi nizom va unga kiritiladigan o‘zgartishlar hamda qo‘srimchalar Toshkent farmatsevtika instituti rahbarining buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

2-bob. Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatları

2.1.Quyidagilar jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

-qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, Toshkent farmatsevtika institutining rivojlantirish dasturlarida jamiyat manfaatlari xamda jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, hodimlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta’minalash, Toshkent farmatsevtika instituti zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha Institut va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 05 iyundagi “Oliy ta’lim muassalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohatlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 3775-sonli Qarorini ijrosi yuzasidan Institutga yangi ishga joylashish istagini bildirgan professor-o‘qituvchilarning ochiq darslarini eshitish va kasbiy kompetentligi to‘g‘risida hulosalar berish;

-Institutga ishga joylashish istagini bildirgan professor-o‘qituvchilardan ochiq darslarni o‘tkazish jarayonida kompetentligini ob’ektiv baholash maqsadida fan dasturi, ishchi reja, ma’ruza (seminar, amaliy, laboratoriya rejasi) matnlarni, elektron taqdimotlarni va ochiq darsga tegishli boshqa xujjatlarni talab etish;

-Institutga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni baholash;

-hodimlarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlariga daxl qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan Toshkent farmatsevtika institutining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so‘rovlар o‘tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish;

-Institut faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash;

-Institut faoliyatining ochiqligini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida batafsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

-Institut faoliyatini isloh qilishda hodimlar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish va ularni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

-Institut faoliyati bo‘yicha hodimlar o‘rtasida o‘tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.

2.2. Jamoatchilik kengashi o‘z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

- Institutga ishga joylashish istagini bildirgan professor-o‘qituvchilarni ochiq darslarini eshitish;

- Institutning faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyat boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko‘rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek, ularni ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha Toshkent farmatsevtika instituti rahbariyatiga tegishli takliflar kiritadi;

- Institutning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o‘zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek, hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

- Institut faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va qarorlarini takomillashtirish, ulardagи mavjud kamchiliklarni bartaraf etish

bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek, kiritilgan takliflarni Toshkent farmatsevtika instituti xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

- davlat dasturlari loyihalarini, tadbirlar rejalarini va Institut faoliyatiga taalluqli, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi boshqa hujjatlarni ishlab chiqish yuzasidan takliflar tayyorlaydi, qabul qilingan dasturlarni amalga oshirishda vakolatlari doirasida ishtirok etadi, bajarilgan ishlarning samaradorligini tahlil qiladi, shuningdek, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar tayyorlaydi;

- Institutga nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni ko'rib chiqadi;

- Institut rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o'tkazadi;

- Institutda, uning fakultet va bo'limlarida, sog'lom ishchanlik muhitini rivojlantirish, qonuniylikni, yuksak huquqiy madaniyat va axloqiylikni ta'minlash, hodimlarda Vatanga sodiqlik ruhini va qonunlarga bo'lgan hurmatni kuchaytirish, ularni ijtimoiy, siyosiy, ruhiy va ma'naviy-ma'rifiy kamol toptirish, shuningdek, mazkur sohadagi ilmiy-ma'rifiy va o'quv adabiyotlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi;

- Institut faoliyatiga bag'ishlangan ilmiy-nazariy va ilmiy-amaliy konferensiyalar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

- o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

2.3. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

- Institutda bo'lajak Kengash majlislari va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

- Ishga joylashish istagini bildirgan professor-o'qituvchilarni ochiq darslarini eshitish maqsadida kafedra professor-o'qituvchilari ishtiroqida Jamoatchilik kengashini chaqirish;

- Bo'limlar va kafedralar rahbarlariga jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

- Institutda ish samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborotlar, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

- Jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

- Yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun anjumanlar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

2.4. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

- jamoatchilik nazorati to‘g‘risidagi qonun hujjatlari talablariga rioya qilishi;
 - Institut faoliyati bilan bog‘liq qonun hujjatlarida belgilangan cheklov larga amal qilishi;
 - Institut va uning mansab dor shaxslarining o‘z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;
 - Institut va uning mansab dor shaxslari faoliyat ko‘rsatishi uchun to‘sinqinlik qilmasligi;
 - Fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo‘l qo‘ymasligi;
 - Jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo‘lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.
- Jamoatchilik kengashining zimmasida qonun hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo‘lishi mumkin.

3-bob. Jamoatchilik kengashining tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

3.1.Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a’zolari kiradi.

3.2.Jamoatchilik kengashi a’zoligiga, qoida tariqasida, institutining kasaba uyushmasi qo‘mitasi, xotin-qizlar masalalari bo‘yicha etakchi, YOshlar ittifoqining boshlang‘ich tashkilotining raxbari, o‘quv-uslubiy bo‘lim, ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi, monitoring va ichki nazorat bo‘limi boshliqlari, fakultet dekanlari, namunali xizmat ko‘rsatgan, katta amaliy tajribaga ega obro‘-e’tiborli professor-o‘qituvchilar kiritiladi.

Jamoatchilik kengashi a’zolarining soni cheklanmagan.

3.4.Jamoatchilik kengashining tarkibi Institut rektorining buyrug‘i bilan har 3 yilda tasdiqlanadi.

3.5.Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o‘rinbosari, kotibi va a’zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

- ular tomonidan jamoatchilik kengashi tarkibidan ixtiyoriy ravishda chiqish to‘g‘risida institut rektorining nomiga ariza berilganda;

- jamoatchilik kengashining majlislarida muntazam ravishda ishtirok etmaganda, mazkur Nizomning 11 bandida tutilgan majburiyatlarni bajarmaganda;

- ularga nisbatan chiqarilgan sudning ayblov hukmi qonuniy kuchga kirganda;

- vafot etganda, shuningdek, sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluvchi qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo‘qolgan yoki vafot etgan deb topilganda.

3.6. Jamoatchilik kengashining tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlar va unga kiritilgan o‘zgartishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 kun ichida Toshkent farmatsevtika institutining rasmiy veb-saytida e’lon qilinadi.

3.7. Jamoatchilik kengashining raisi:

- jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumi rahbarlik qiladi;

-jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

- jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

- jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

- jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

- jamoatchilik kengashi a'zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini muvofiqlashtiradi;

- Toshkent farmatsevtika institutining rasmiy veb-saytida va boshqa resurslarda joylashtiriladigan jamoatchilik kengashining faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar tarkibi bo'yicha takliflar kiritadi va uni Institut rektori bilan kelishadi;

- jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan Toshkent farmatsevtika instituti rahbari bilan hamkorlik qiladi;

- jamoatchilik kengashining samarali ishini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3.8. Jamoatchilik kengashining raisi bo'lмаган тақдирда, унинг ваколатлари ва мажбуриятларини rais о'rинбосари бajarади.

3.9. Jamoatchilik kengashi raisining o'rинбосари:

- rais yo'qligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

- jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

- fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi, shuningdek, jamoatchilik kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha ishlarni tashkil etadi;

- jamoatchilik kengashining samarali ishlarini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3.10. Jamoatchilik kengashining kotibi:

- jamoatchilik kengashining faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta'minlash masalalarini hal qiladi;

- jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o'z vaqtida tayyorlanishini ta'minlaydi, Institut xodimlaridan zarur hujjatlar va ma'lumotlarni so'rab oladi;

- kun tartibiga muvofiq jamoatchilik kengashi majlislari o'tkazilishini tashkil etadi;

- jamoatchilik kengashi o'tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro'yxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

- jamoatchilik kengashining a'zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisi o'tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

- jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini jamoatchilik kengashi majlisida ko'rib chiqish bo'yicha takliflar kiritadi;

- jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning jamoatchilik kengashi a'zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo'natilishini ta'minlaydi;

- jamoatchilik kengashining samarali ishlashini ta'minlash bo'yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3.11. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarini muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkonini bo'lмаган holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

Jamoatchilik kengashining a'zolari:

- o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Jamoatchilik kengashi tomonidan tashkil etiladigan majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

- Institut faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

- Institut xodimlari, ularning oila a'zolari bilan uchrashuvlar o'tkazadi va ularning huquqlari, erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ta'minlash bo'yicha takliflarni jamoatchilik kengashiga kiritadi;

- jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

- jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi;

- jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

3.12. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejali ni asosida har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

3.13. Jamoatchilik kengashining majlislariga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

3.14. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

3.15. Jamoatchilik kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o'rinosari olib boradi.

Jamoatchilik kengashining majlisida Toshkent farmatsevtika instituti rahbari, uning o'rinosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

3.16. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatli hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

3.17. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

3.18. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

3.19. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Institut rektoriga yuboriladi.

3.20. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

Institut jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

3.21. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lgan hollarda, jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

4-bob. Yakunlovchi qoidalar

4.1. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Toshkent farmatsevtika instituti tomonidan amalga oshiriladi.

4.2. Jamoatchilik kengashining faoliyati Institut rektori tomonidan nazorat qilinadi.

4.3. Jamoatchilik kengashining faoliyati bilan bog'liq Karorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat kiritilishi mumkin.